

**COVID 19 KASALLIGINI O'TKAZGAN BEMORLARDA KASALLIK  
KECHISHINI JIGAR FUNKSIONAL KO'RSATKICHLARI.**

**No'monova Go'zaloy Davronbek qizi**

**Andijon davlat tibbiyot instituti magistranti**

**Ilmiy rahbar: Soliyev A.Q.**

**Annotatsiya:** Yangi koronaviruslar tufayli keksa va yosh bemorlarning klinik xususiyatlari va laborator ko'rsatkichlari natijalari boshqacha natijalar kasb etmoqda. Keksa yoshdagi bemorlar COVID 19 ga chalingan bemorlar orasidan yuqori xavfga kiruvchi maxsus guruh hisoblanadi, hamda klinik belgilari tez suratda rivojlanadi. Koronavirus kasalligi 2019 (COVID-19) pandemiyasi butun dunyo bo'ylab avj olishda davom etayotgan bo'lsada, ko'plab mamlakatlarda ushbu kasallikning klinik va laboratoriya tadqiqotlari cheklangan. Biz kasallik bilan bog'liq samarali ko'rsatkichlarni aniqlash uchun COVID19 bilan kasallangan bemorlarning epidemiologik, klinik va laboratoriya natijalarini tekshirdik.

**Kalit so'zlar:** COVID 19(CoronaVirusDisease-19), pandemiya, jigar xolangiotsitlari, jigar disfunktsiyasi, koagulyatsiya.

Hammamizga ma'lumki, hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha nuqtalariga tarqalishga ulgurgan va bir necha yuz milliondan ortiq odamlarda aniqlangan COVID-19 (CoronaVirusDisease-19) kasalligi insonlarga har tomonlama xavf solmoqda. COVID-19 kasalligini qo'zg'atuvchi virus SARS-CoV-2 (severe acute respiratory syndrome coronavirus 2) koronaviruslar oilasiga mansub bo'lib, shu asrda ushbu oila viruslari keltirib chiqargan uchinchi epidemiya hisoblanadi. SARSCoV-2 virusi boshqa koronaviruslardan o'ta tez tarqalishi va keng moslashuvchanlik qobiliyatiga egaligi, yangi shtammlari hosil bo'lish tezligining yuqoriligi, bir necha retseptorlardan foydalanib bir necha organla tizimiga nisbatan tropizm xususiyati mavjudligi (xususan, II tip alveolyar hujayralar, enterotsitlar, neyronlar, kardiomiotsitlar, jigar

xolangiotsitlari, buyrak proksimal kanalchalari, urogenital tizim hujayralarini angiotenzin xosil qiluvchi ferment (ACE2) retseptori orqali, makrofaglar, monotsitlar va T-limfotsitlarni CD147 retseptori orqali zararlaydi) xususiyatini namoyon qilishi bilan xavfli hisoblanib, og'ir formalarida atipik pnevmoniya, o'tkir respirator distress sindrom, o'pka fibrozlanishi, "sitokinli bo'ron" indutsirlagan tizimli yallig'lanish kasalligi, vaskulitsimon autoimmun kasallik, tromboz va tromboemboliyalar – insult va infarktlar, yurak-qon tomir kasalliklari, psixik va nevrologik buzilishlar keltirib chiqarishi aniqlandi.

Covid-19 virusi Yer yuzi bo'yicha oyiga 80-90 ming odamning o'limiga sabab bo'lganligi ma'lum. Shu bois Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti COVID-19 pandemiyasini oldini olish uchun karantin qoidalariga amal qilishga chorlab kelgan Boz ustiga, pandemiyaning so'nggi oylarda turli mintaqalarda "omikron" shtammining XBB.1.5 subvarianti keng tarqalgan. U avvalgi mutasiyalar Ichida eng yuquvchani sifatida baholangan. Ammo mutaxassislarni tashvishga solgan omil shundagina iborat emas. Negaki, bu dard vaqt o'tishi bilan qator xavfli asoratlarini ham namoyon qilmoqda.

Shulardan eng ko'p uchrayotgani — tromboz. U ortiqcha vazn, semizlik va qandli diabet kabi metabolik kasalliklardan aziyat chekuvchi bemorlarda ayniqsa, ko'p kuzatilyapti.

Ikinchi xavfli asorat — yurak faoliyati buzilishi. Gap shundaki, virus qon tomirlari, o'pka, yurak va boshqa organlar to'qimalariga kiringach, ularni yo'q qilib, yallig'lanishni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o'z navbatida, miokardit yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti.

Uchinchi xavfli asorat — depressiya va xotira susayishi. Pandemiya boshlanganidan buyon shifokorlar COVID-19'ni boshdan o'tkazgan bemorlarda xuddi shu alomatlarini qayd etishmoqda.

To'rtinchi xavfli asorat — insult. Bu mazkur infeksiya oqibatida miya tomirlarida kuzatilayotgan yallig'lanish jarayoni bilan bog'liq.

Beshinchi xavfli asorat — o`pkada fibrozi. Koronavirusli pnevmoniyaga chalingan bemorlarda tegishli muolajalardan so`ng, o`pkada chandiqlar hosil bo`lib, bu nafas olish samaradorligi pasayishiga olib keladi. Oltinchi xavfli asorat — son suyagi, yelka, tizza bo`g`imlari emirilishi bilan kechmoqda. Oqibatda endoprotezlash amaliyotiga muhtoj bemorlar soni ko`paymoqda.

Hozirgi tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, COVID-19 bemorlarida yomon prognoz jins (erkak), yosh (60 yoshdan), asosiy tibbiy holatlar (qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari), ikkilamchi va boshqa tegishli omillar bilan bog`liq. Shu bilan birga, og`ir COVID-19 bilan og`rigan bemorlarda ALT, AST, umumiy bilirubin va boshqa jigar funktsiyasi ko`rsatkichlari yengil COVID-19 bilan solishtirganda sezilarli darajada oshdi va tiklanish jarayonida jigar funktsiyalari ko`rsatkichlari asta-sekin normal holatga qaytdi. Yengil COVID-19 bilan og`rigan bemorlarda jigar shikastlanishi ko`pincha vaqtinchalik bo`lib, hech qanday maxsus davolashsiz normal holatga keltirilishi mumkin. Jigarning og`ir shikastlanishi bo`lgan bemorlarga odatda gepatoprotektiv dorilar buyuriladi. Bundan tashqari, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda jigar disfunktsiyasi koagulyatsiya va fibrinolizning faollashishi, nisbatan past trombositlar soni, granulotsitlar soni va neytrofil-limfotsitlar nisbati va yuqori ferritin darajasi bilan bog`liq. Ushbu parametrlar yallig`lanishning o`ziga xos bo`lmagan belgilari deb hisoblangan bo`lsada, ular tug`ma immunitetning disregulyatsiyasiga ham mos keladi. Shunisi e`tiborga loyiqki, bu o`zgarishlar immunitet muvozanati bemorning 673intensive ortishi bilan sodir bo`ladi. Shunday qilib, keksa bemorlar uchun vaziyat yomonroq bo`lishi mumkin. Glyukokortikoidlarning 673intensive673 gepatitli bemorlarda COVID-19 prognoziga ta`siri noma`lum. Og`ir COVID-19 bemorlari, ayniqsa, keksa bemorlarda ko`proq 673intensive monitoring yoki individual davolanishni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kulyutcina E.R., Tatarchenko I.P., Levashova O.A., Denisova A.G., Drujinina T.A. The interrelationship of indices of hemocysteine and genetic

polymorphisms conditioning disorders of folates metabolism in healthy population. *Klinicheskaya Laboratornaya Diagnostika (Russian Clinical Laboratory Diagnostics)* 2017; 62 (2): 82-87. (in Russ.). DOI: <http://dx.doi.org/10.18821/0869-2084-2017-62-2-82-87>.

2. Пашенков М.В., Хаитов М.Р. Иммуный ответ против эпидемических коронавирусов. *Иммунология*. 2020, 41 (1): 5–18. DOI: [10.33029/0206-4952-2020-41-1-5-18](https://doi.org/10.33029/0206-4952-2020-41-1-5-18).

3. Головкин А. С., Кудрявцев И. В., Дмитриев А. В., Калинина О. В. Фиброзные изменения сердечно-сосудистой и дыхательной систем после перенесенной COVID-19: вклад факторов иммунной системы и генетическая предрасположенность. *Российский кардиологический журнал*. 2020;25(10):4087. doi:[10.15829/1560-4071-2020-4087](https://doi.org/10.15829/1560-4071-2020-4087)

